

Course: History of the Eastern and Western philosophy

Lecture 11: Irrational interpretation of the concept of life in the direction of “philosophy of life”



Lecturer: Dr. Gulnoz Ruzmatova

“HAYOT FALSAFASI” OQIMIDA HAYOT TUSHUNCHASINING IRRATSIONAL TALQINI

(Fridrix Nitshe, Vilgelm Diltey va Georg Zimmel)

MA'RUZA REJASI

- **«Hayot falsafasi»ning vujudga kelishi va mohiyati. Ijtimoiy-tarixiy va g'oyaviy-nazariy asoslari.**
- **Fridrix Nitsshe «Hayot falsafasi»ning yirik namoyandasi sifatida.**
- **Nitsshe falsafasi «Hayot» tushunchasi inson tabiatining hayotiy asosidir.**
- **Vilgelm Diltey va Georg Zimmelning «Akademik» hayot falsafasi.**

Mavzuning tayanch tushunchalari:

*«Hayot falsafasi», «A'lo odam»,
«Hokimiyatga intilish irodasi», abadiy*

qaytish ta'limoti.

XIX ASRNING OXIRIDA G'ARBIY YEVROPADA IRRATSIONALIZM. FRIDRIX NITSSHE FALSAFASI

- XIX asr ohirida “hayot falsafasi” mustaqil va muhim yo‘nalishga aylandi. Bunga sabab, “tafakkur - falsafaning universal organi” sifatida to‘liq dunyoqarashni tushuntirib bera olmay qolganligidir. Uning o‘rnini, hayot kechinmalariga to‘la falsafa egallashi kerak edi. Germaniyada “Hayot falsafasi»ga asos solgan faylasuflardan Fridrix Nitsshe va Vilgelm Diltey hisoblanadi. “Hayot falsafasi” XIX asrning oxirlarida olamning mexanistik manzarasini tuzgan tabiiy-ilmiy dunyoqarashga javob sifatida yuzaga keldi.

Fridrix Nitsshe (15.10.1844 - 24.08.1900)

- Nitsshe o'z falsafasida birinchi o'ringa axloq masalasini qo'yadi. Falsafaning markazi inson, deydi. Falsafani mifologiya bilan uyG'unlashtiradi. Inson o'zining tuG'ilishida u bilan birga buyuk ruhiy holat birga keladi. Har bir ruh yorug'lik ma'budi - inson uchun juda muhim. Inson nurga intilib yashaydi, deydi.

Fridrix Nitsshe

- Yuksak ruh haqida fikr yuritadi. Ilohiy ruh har bir inson ruhining ustoziga aylanishi zarurdir. Zardusht o'z shogirdlarini tashlab ketadi. Uning shogirdlari o'z yo'llarini mustaqil topib olishlari zarur, o'zlarining yuksak ruhi bilan qo'shilishlari kerak. Aynan ilohiy ruh insonni ezgulik va yovuzlikning narigi tomoniga olib boruvchi yo'lni topishda yordam beradi. Bu olam xudo makonidir.

- U har bir insonning ruhiy qalbida yashaydi. Insonning ruhiy qalbi bu xudo ehromidir.
- Insonning ruhiy kamoloti uch davrni bosib o'tadi - tuya, sher va bolalik. Birinchi davr - tuya davri, u qiyinchiliklar oldidagi sabr-qanoatni, chidamlilik, itoatkorlikni belgilaydi. Ikkinchi davr - sher davri esa inson erkin ruhini belgilaydi. Uchinchi davr - bu bolalik, go'daklik davri. Bu davrda sherga xos yolg'izlik ruhi o'rnini ilohiy shodonlik ruhi egallaydi.

- Nitsshe uchun hayot ong bilan ham aniqlanadi. Inson ongi o'z-o'zini anglashga intiladi, o'z taraqqiyotini bilishni xohlaydi. Iroda - inson ichki ruhiyatini namoyon qiluvchi, ichki qobiliyatini ochuvchi shunday kuchdir. Nitsshe so'zi bilan aytganimizda, "iroda vujudga kelishda faol rol o'ynaydi; ma'nadan o'zligini namoyon qilishning o'zi ham bu vujudlikka aylanishdir".



Fridrix Nitsshe

- Inson to'g'risida fikr yuritar ekan, Darvinning insonning maymundan paydo bo'lgan, degan fikrini tanqid qiladi. Nitsshe buni butunlay boshqacha talqin qiladi. Uning fikricha, maymunda taqlid qilish odati bor. Inson ham shu ma'noda boshqa insonlarga taqlid qiladi. Insoniyat olomon shaklida yashaydi. Unda iroda kuchi yo'q. Inson ham oqimga qarshi borolmaydi. Inson ruhiy erkinligini tobora yo'qotib bormoqda. Maymunda ijodkorlik ruhi yo'q,
- F.Nitsshe tartib to'g'risida ham o'z fikrlarini bildiradi. Inson adashmasligi uchun qalbida tartib bo'lishi kerak. Biz «Avesto»ga murojaat qilsak, odamlar bir-birini yaxshi tushunsa, qalbi pok bo'lsa, uyida ham pokizalik bo'ladi. Inson, avvalambor, o'z ichidagi yovuzlikni yengishi kerak. Shunda ong ham o'zgarib, rivojlanib boradi, deydi Nitsshe.

- AYTISH MUMKINKI, NITSHE SUQROTGACHA BO'LGAN VA UN DAN KEYINGI YUNON FALSAFIY TAFAKKUR DUNYOSIDAN HAMDA SHU BILAN BIRGA EVROPA FALSAFA RUHIDAN O'SIB CHIQDI. NITSHENI SUQROT, PLATON, ARISTOTEL, GEGEL YOKI O'ZIDAN KATTAROQ ZAMONDOSHI ARTUR SHOPENGAEURGA O'XSHAGAN SOF MA'NODAGI FAYLASUF VA FAQAT FAYLASUF DEB AYTISH QIYIN. NITSHE A'LO ODAM, KELAJAK ODAM, OZOD AQL G'OYALARINI YARATDI.

- U EHTIROSLARI JUNBUSHGA KELGAN VAQTDA <<MEN ODAM EMASMAN, MEN DINAMITMAN>> DEB ATASHNI SEVARDI. BU SO'ZLAR QANCHALIK G'AYRIFAVQULOTDA BO'LIB ESHITILMASIN. NITSHENING MOHIYATINI ANGLASHGA KO'MAKLASHADI. NITSHENING BARCHA YOZGANLARI , BARCHA HIKMATLARI TOM MA'NODA DINAMID VOSITASIGA EDADIR. BU DINAMID FIKRLAR OLAMLARIDA SHODDAT BILAN PORLAB, YANA O'Z ICHIDAN GO'ZAL VA XARAKATCHAN – INKOR QILUVCHI VA TASDIQLOVCHI GO'ZAL FIKRLAR OLAMLARINI YARATADI.

- SHARQDA ZARDUSHT, BUDDA G'OYALARI QANCHALIK O'ZIGA ERGASHTIRGAN VA ZAMONDOSHLARI FIKRLASHIGA DINOMID KABI TA'SIR KO'RSATGAN BO'LSA, NITSHE G'OYALARI, HIKMATLARI HAM EVROPAGA AYNIQSA 20 ASR YEVROPASIGA ANA SHUNDAY INQILOBIY TARZDA TA'SIR KO'RSATDI. NITSHE EVROPA FIKRI, UNING TAFAKKURINI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQDI.

- <<ZARDUSHT
TAVALLOSI>>ASARI BILAN
ESA EVROPA VA SHARQ
O'RTASIDA HECH QACHON
BUZILMAYDIGAN KO'PRIK
QURDI.

- NITSHE O'ZINING BUTUN YIGIRMA JILDLIK ASARLARI VA OLAMNI QAMRAGAN G'OYALARI BILAN OSMON SARI QO'YILGAN UCHI HAM, QAERGA QO'YILGANLIGI HAM KO'RINMAY KETGAN, MA'LUM BO'LMAGAN NARVONGA O'XSHAYDI. NITSHE SHU NARVONDAN TUGANMAS TAFAKKUR YUKSAKLIKLARIGA KO'TARILDI.

- INSONIYAT DONISHMANDLARI YARATGAN G'OYALARNI BAG'RIDA BALAND ALANGA OLIB YONGAN OLOV ICHIDAN O'TQAZDI. KO'PLAB G'OYALAR BU O'TGA DOSH BEROLMAY YONIB KETDILAR. ASILLARI NITSHE OLOVI ICHIDAN YANADA ASILLANIB CHIQDI.
- NITSHE O'Z G'OYALARI KABI BENIHOYA BEZOVTA, IZTIROBLAR, IZLANISHLAR BILAN TO'LA UMR YO'LLARINI BOSIB O'TDI.

<<ZARDUSHT TAVALLOSI>>

- <<ZARDUSH TAVALLOSI>> -TO'RT QISMDAN IBORAT BO'LGAN NASRIY DOSTON. USHBU NASRIY DOSTONNI MUTOALA QILAR EKANSIZ, NEMIS FAYLASUFI FRIDRIX NITSHENING FAQAT O'ZIGAGINA XOS VA MANSUB BO'LGAN QARASHLARI, FIKRLARI BILAN TANISHASIZ, HECH KIMNIKIGA O'XSHAMAYDIGAN VA HECH KIMNI TAKRORLAMAYDIGAN OLAMIDAN VOQIF BO'LASIZ.

<<ODAM O'Z –O'ZINI
YAXSHI KO'RISHNI
O'RGANSIN. BU BUTUN VA
SOG'LOM MUHABBAT
BO'LSIN...>>

FRIDRIX NITSHE

<<ZARDUSHT TAVALLOSI>>

- <<ZARDUSHT TAVALLOSI>> ASARIDA ZARDUSHT HAYOTI VA UNING HIKMATLI SO'ZLARI O'Z AKSINI TOPGAN.
- ZARDUSHT 30GA TO'LGANDA, U O'Z YURTINI TARK ETDI. U TOG'LARGA CHIQIB KETDI. U O'N YIL O'Z YURTIDAN UZOQDA BO'LDI. KUNLARDAN BIR KUN UYIGA QAYTISHNI IXTIYOR QILDI, VA QUYOSHGA QARAB TAVALLO QILDI.

- << EY, SHAHRI XOVOR! AGAR MUNAVVAR SHU'LALASRINGA INYIZORLAR BO'LMASA, SENING BAXT IQBOLING NIMAGA HAM ARZIRDI!
- U BU SO'ZLARI BILAN O'ZIGA MUROJAT QILAYOTGAN EDI. ZARDUSHT UYIGA QAYTAYOTGANDA UNGA MUBORAK HUJRASIDAN O'TIN TERISHGA CHIQQAN CHOL DUCH KELDI.

- SHUNDA PIR ZARDUSHGA SHU SO'ZLARNI AYTDI.
- <<BU MUSOFIRNI MEN TANIYMAN: BIR NECHA YIL ILGARI BU YERDAN U O'TGAN EDI. O'ZINI ZARDUSHT DEB ATAGAN EDI; LEKIN U ORTIQ O'ZGARIBDIR.
- O'SHANDA SEN HOKINGNI TOG'LARGA OLIB CHIQIB KETGAN EDING: NAHOTKI SEN ENDI O'Z OLOVINGNI VODIYLARGA ELTMOQNI HAYOL QILASAN? NAHOT SEN O'T QO'YUVCHILARGA BERILADIGAN JAZODAN QO'RQMAYSAN?

- ZARDUSHT BILAN PIR O'RTASIDA UZOQ SUHBAT BO'LDI. PIR ZARDUSHTGA AYTDIKI, SEN YOLG'IZLIKDA DENGIZ MISOL YASHADING VA DENGIZ SENI O'Z TO'LQINLARIDA KO'TARIB YURDI. EVOH! SEN AXIR QURUQLIKKA CHIQISHNI XOXLAYSANMI? SEN YANA O'Z LOSHINGNI O'ZING KO'TARIB YURUSHNI ISTAYSANMI?

- ZARDUSHT JAVOB BERDI: <<MEN ODAMLARNI SEVAMAN>>.
- <<SHUNING UCHUN EMASMI,-DEB AYTDI PIR,- MEN O'RMON VA YOZIGA CHIQIB KETMISHDIM? AXIR SHUNING UCHUN EMASMI, ODAMLARNI SHUNCHALAR SEVGANIM?
- ENDI MEN XUDONI SUYAMAN. SUYMAYMAN MEN ODAMLARNI, NAZDIMDA ODAM BOLASI BAG'OYAT CHALA. ODAMGA MUHABBAT MENI O'LDURGAN BO'LUR EDI>>.
- ZARDUSH JAVIB BERDI: <<MUHABBAT HAQIDA NIMA DEBMAN! MEN ODAMLARGA TORTIQ OLIB BORAMAN>>

- ZARDUSHT PIR BILAN SUHBATI TUGAGANDAN SO'NG U ODAMLAR ORASIGA BORDI. ODAMLAR BILAN BIR NECHA MASALALARDA MUROSA QILDI ZARDUSHT.
- ODAMLARGA KO'P NARSALARNI TUSHUNTIRMOQCHI BO'LDI. LEKIN ODAMLAR TUSHUNMAS, TUSHUNISHNI HOHLAMAS EDILAR HAM.

- «Hayot falsafasi»ning nitsshecha talqinidan keyin G'arbiy Yevropa mamlakatlari da «akademik» hayot falsafasi oqimi vujudga keldi. Bu oqimning asoschisi ***Vilgelm Dilteydir*** (1833-1911).

- Diltey Nitsshening ko'pgina qarashlarini qo'llab-quvvatlagan bo'lsada, lekin uning qadriyatlarni butunlay qayta baholash kerakligi haqidagi fikrlariga qo'shilmaydi, aksincha, qadriyatlarni qayta tiklashning tarafdori edi. Diltey Kant, Gegel falsafiy ta'limotlari ruhida tarbiyalanadi. Uning ijodida mazkur faylasuflarning ta'siri
 - yaqqol namoyon
 - bo'ladi

- Diltey o'zining nazariy vazifasini «tarixiy tafakkur»ni tanqidiy tahlil qilib chiqishda, tarixiy ta'limotini uslubni yangi talqinini berishda, hamda shu asosda tarixiy dunyoqarashning kelajagi va natijalarini ko'rib chiqishda ko'radi. Ana shu muammoni echishda hayot falsafasi tushunchalari apparatidan foydalanadi, «hayot» falsafasini birmuncha rivojlantiradi. Lekin u Nitsheddan farqli o'laroq, ilm-fan ahamiyatini inkor qilmaydi. Aksincha, Diltey inson, jamiyat, tarix, madaniyat haqi-dagi fanlarni asoslashga harakat qiladi. Uning fikricha, hayot sohasi ruhiyat bilan, ruhiyat faoliyati va ong bilan bog'liqdir.

- Berlinda tugʻilgan. «Hayot», Zimmel fikricha, ijodiy jarayonning vujudga kelishidir. Bu jarayonni aql vositalari bilan tushuntirib boʻlmaydi, buni faqat ichki iztirob, intuitsiya orqali tushunish mumkin. Ana shu hayot iztiroblari madaniyatning koʻpgina shakllari orqali obʻektivlashadi. Zimmelning falsafiy qarashlarining shakllanishida Shopengauer va Nitsshe taʼlimotlarining taʼsiri kuchli boʻlgan. Keyinchalik, 1890-1900-yillarda u formal sotsiologiyaning asoschisiga aylandi.

- Zimmel umumiy qonun o'rniga «individual qonun»ni, ya'ni taqdirni qo'yadi. Taqdir faqat intuitsiya (ichki ovoz) orqali erishiladigan jarayon. Intuitiv bilish «tarixiy fan»larning, «ruh haqidagi
- fan»larning
- markaziy
- uslubidir.

XULOSA

- XULOSA QILIB AYTGANDA NITSHENING <<ZARDUSHT TAVALLOSI>> ASARI AXLOQIY JIHATLARI BILAN JUDA QIMMATLI ASARDIR. ZARDUSHTDAGI HISLATLAR VA UNING XATTI HARAKATLARI INSONLARNI INSON BO'LISHLIKKA, HAYVONLARDAN FARQLI MAVJUDOT BO'LISHLIKKA UNDAYDI

● **E'TIBORINGIZ
UCHUN
RAXMAT!!!**